

**JAMIYATNING YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA YASHIL MAKON
KONSEPSIYASINING DETERMINISTIK XUSUSIYATI****Hakimov N.H. –***Toshkent amaliy fanlar universiteti,
professori, fasafa fanlari doktori.***Yusupov O.O. –***Toshkent amaliy fanlar universiteti,
dotsenti, fasafa fanlari nomzodi.*

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida yashil makonni shakllantirish, ya'ni inson ekologik xavfsizligini ta'minlash bevosita demokratik islohatlar ko'lami maqsadi bilan bog'liqdir. Bunday strategik ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirishda yer va suv resurslaridan unumli foydalanish masalalarining yechimida, atmosfera havosining tozaligini saqlash, mineral xom ashyo zaxiralarimizning O'zbekistonning kelajagi uchun foydalanishda samarali ishlarini amalga oshirishda lozim. Hozirgi davrda ekologik holat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vazifalaridan biri mavjud mineral xom ashyo, shu jumladan, gaz, neft resurslaridan tejimli foydalanishni tashkil etishdan iborat. Masalaning amaliy ahamiyati faqat uning tarbiyaviy tomonida emas, balki yurtimizning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiëti, "O'zbekiston - 2030" va «Raqamli O'zbekistan-2030» strategiyasini amalga oshirish bilan chambarchas bog'liqligidadir. Globallashuv jarayonida, xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar kengayib borayotgan hozirgi davrda, O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati, shu jumladan, O'rta Osiyodagi tutgan o'rni, xalqaro obro'si muttasil oshib bormoqda. Mamlakat xalqaro nufuzining oshib boraëtganligi umumbashariy, mintaqaviy, hududiy ekologik muaommalarning yechimini topishdagi konseptual siyosatida, ushbu sohada amalga oshiraëtgan tizimli tadbirlarida, ekologik muhitni sog'lomlashtirish uchun, global, mintaqaviy, hududiy ekologik tangliklarni bartaraf etish uchun davlat budjetidan ajratilaëtgan mablag'larida ham namoën bo'layapti. Shuningdek, yashil makon konsepsiyasini amalga oshirish maboynida nodavlat sektor vakillari bilan hamkorlikdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash lozimki, yurtimizdagi ekologik muhit, vaziyatning dolzarb masalalarini ilmiy asosda chuqur o'rganish, ekologik mazmundagi loyihalar tuzish, ilmiy ishlar ko'lamini kengaytirish uchun xalqaro hamjamiyatga mansub tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadga muvofiq. Bunday sharoitda inson ekologiyasi himoyasini yanada takomillashtirish, uning institutsional asoslarini mustahkamlashni chuqurlashtirish vazifasini ilgari suradi.

Yashil makon konsepsiyasining amalga oshirilish jarayoni, inson ekologiyasi xususiyatlari o'rganilishida, ekologiya mavzuida mustaqil ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi va ularning amaliyotga joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etgan. Gekkel, Ernst ekologiyaning amaliy ahamiyati to'g'risida va uning nazariy jihatlarini tadqiq qilgan.[1,41]. K. Mebius -biotsenoz to'g'risidagi tushunchani fanga olib kirgan [2,35]. Ta'kidlash lozimki o'simliklar ekologiyasi to'g'risidagi tushunchalar ilmiy ëndashuvlar, o'simliklar fiziologiyasi va fitogeografiya atrofida shakllangan. Hozirgi davrda ekologiyaning rivojlanish bosqichida olib borilaëtgan ilmiy tadqiqotlar, ko'p jihatdan biosferaning hozirgi holatiga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining soha institutlari yosh tadqiqotchilari, universitetlarda faoliyat ko'rsataëtgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarining ma'lum qismida ekologik muammolarning yechimi, yashil makon konsepsiyasini amalga oshirishning samarali metodlari izlanmoqda. Yosh ilmiy tadqiqotchilarga xalqaro, respublikamiz darajasidagi ilmiy amaliy konferensiyalarda ishtirok etish, ekologiyaga, yashil makon amaliyotiga, uning deterministik xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar to'plamlarida chop etishga amaliy yordam qilmoqda. Eng muhim natijalardan biri yosh olimlarning mustaqil tadqiqotlari natijasida qo'lga kiritgan ilmiy xulosalari, mustaqil ilmiy ishlari tufayli qo'lga kiritgan natijalari asosidagi takliflarining ekologik tizimda amaliyotga kiritilishiga ham yordam bermoqda. Mavzu tadqiqi davomida Hakimov N.H. Zulfikorov Sh.X. Qodirov N.N.O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ekologik muammolarning vujudga kelishi sabablarini, inson ekologiyasining mohiyati

va uningn islohatlar ko'лами bilan bog'liqligini o'rgangan.[3,51]Alixonov B. Jakbarov S. Bioxilmaxillikni saqlash - barqaror rivojlanish omili ekanligini [4,21].Mamashakirov S. Ekologiyaning amaliy jihatlarini[5,11].tahlil qilgan.

Tadqiqot metodologiyasini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologiyaga oid moddalar va ekologiyaga doir qabul qilingan Qonunlarda tashkil qiladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning yashil makon konsepsiyasi va ekologik muvozanatni saqlashga bag'ishlangan konseptual g'oyalari, amaliy ahamiyat kasb etadigan fikrlari nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.. Tadqiqotni amalga oshirishda yashil makon konsepsiyasining mohiyati, futurologik, ahamiyati, uni amalga oshirish mexanizmlariga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, monografik tadqiqotlardan foydalanildi.

Jamiyatning yangi taraqqiёт bosqichida yashil makon konsepsiyasini amalga oshirishning asosiy vazifalariga e'tibor qaratish zaruriyati vujudga keldi. Birinchidan, tabiiy va sun'iy (inson tomonidan yaratilgan) tizimlar tuzilishi va faoliyati haqidagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish. Ikkinchidan, O'zbekiston hududida biologik turlarning joylashish hududi, ya'ni mamlakatimiz hududida olib borilgan uy joy komplekslari, yangi korxonalar, yo'llar qurilishi munosobati bilan ekologik ma'lumotlar ba'zasini yangilash. Uchinchidan, biotsenozlarning yashashi tizimlari umumiy soniga nisbatan ko'payish qonuniyatlari to'g'risidagi ilmiy qarashlarni tizimlashtirish. To'rtinchidan biosferadagi jaraenlar haqidagi umumlashirilgan tushunchalar hamda biosferada biogen elementlarning aylanishi, ularni hisoblash metodi baholanishi to'g'risidagi innovatsion fikrlar majmuiga e'tiborni kuchaytirish zarur. Shuning uchun ham inson ekologiyasi fan sifatida inson va biosfera va atrof-muhit orasidagi munosabatlarni, yashil makon konsepsiyasining tashkiliy jihatlarini o'rganadi. Yashil makon konsepsiyasining amalga oshirishdagi asosiy maqsad, "Bizning vazifamiz - kelajak avlodlar barqaror xavfsiz va farovon dunyoda yashashi uchun barcha chora - tadbirlarni yaratishdan iborat" [6,4].

Inson ekologik xavfsizligini ta'minlash institutsional tizimi takomillashtirilishida «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi" to'g'risidagi 2025 yil 19 noyabrdagi Qarori, strategik ahamiyatga ega bo'ldi [7,1]. Qarorda ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda respublikada ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirining oldini olish, shuningdek, hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida texnik va texnologik jaraenlar oqibatida yuzaga kelaётgan muammolarni hal etishga yangi yondashuvlarni joriy qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida ekologik muvozanatni uyg'unlashtirish g'oyasini amaliyotida va uning institutsional asoslarini mustahkamlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimiz asosiy qomusining 62- moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar"deb belgilab qo'yilgan.[8,38].

Yangi O'zbekistonda "Ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish beshinchi ustuvor yo'nalishimizdir" [9,5]. Shu munosobat bilan Respublika shahar va tumanlarida sanitariya jihatidan tozalashning mutlaqo yangi tuzilmasi yaratildi. Barcha joylarda davlat-xususiy sheriklik sharoitida zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda chiqindilarni to'plash, tashish va qayta ishlash klasterlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi chiqindilarni kompleksli boshqarish tizimi joriy etilmoqda. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlil davomida belgilangan vazifalarning tegishli darajada amalga oshirilishini, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida islohotlarni belgilangan sur'atlarda va samarali amalga oshirilishiga to'sqinlik qiluvchi qator omillar mavjud [10,2].

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qomitasi, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, fuqoralik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda yoshlar orasida uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya tizimi muntazam takomillashtirilmoqda. Natijada O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklarining qarori bilan Ekologik ta'lim davlat standarti va Uzluksiz ekologik ta'lim konsepsiyasi ishlab chiqildi va ta'lim-tarbiya amaliётiga kiritildi. Malakali mutaxassislar, yetuk ekolog, faylasuf olimlar ishtirokida

ekologik ta'lim-tarbiya bo'yicha seminarlar tashkil qilinmoqda. Darsdan tashqari vaqtda talaba-èshlar bilan ishlash uchun ekologik to'garaklar ishini tashkil etishga mo'ljallangan dasturlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ekologik ta'lim yo'nalishidagi darsliklar, o'quv qo'llanmalari, tavsiyalar tayèrlandi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mutaxassislari tomonidan tayèrlangan o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalar o'quv yurtlariga etkazildi. Talabalarning ekologik tarbiyasida muhim o'ringa ega bo'lgan Atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Mamlakatimizda ekolog mutaxassislar tayèrlash masalasi tubdan yangilandi. Oliy pedagogik ta'limda ekologik ta'lim va tarbiya ishining mukammallashtirish, uni demokratik islohatlar talablari asosida tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qomitasi huzurida ish olib boraètgan axborot markazining ishini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu qo'mitaning ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar dasturi amaliètga joriy etildi, qo'mitaning sa'y-harakati bilan Ekologiya xabarnomasi jurnali nashr etilmoqda. Muntazam sur'atda ommaviy axborot vositalari orqali ekologiyaning dolzarb masalalari, atrof-muhitni saqlash bo'yicha tavsiyalar yoshlar orasida tarqatilmogda, ularda ekologik ong, tafakkurning rivojlanishi bo'yicha tavsiyalar berilmogda. Qolaversa, ommaviy axborot vositalari orqali xorijiy mamlakatlarda ekologik vaziyatni saqlash, unga zarar etkazmaslik, ayniqsa, jonli tabiatni asrash bo'yicha to'plangan tajribalarning ko'rsatilishi talabalarda katta qiziqish o'yg'otmogda.

ADABIYOTLAR:

1. Геккель, Эрнст. Красота форм в природе. - СПб.: Издательство Вернера Регена, 2007. - С. 144. - ISBN 5-903070-08-6. Геккель, Эрнст. Мировые загадки. Общедоступные очерки монистической философии. - М.: Либроком, 2012. - С. 256. - ISBN 978-5-397-02200-2.
2. Мёбиус Карл Август // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / под ред. А. М. Прохоров ф 3-е изд. - М.: Советская энциклопедия, 1969.
3. Ҳақимов Н.Х., Зулфиков Ш.Х., Қодиров Н.Н. Ўзбекистон янги тараққиёт босқичида. Тошкент, Иқтисодиёт, 2022. Бет. 365. Ҳақимов Н.Х. Инсон экологияси. Тошкент, Иқтисодиёт, 2021. Бет. 345.
4. Хуррият, 2012. йил 23 май. <http://parliament.gov.uz/upload/iblock/fad/jojtgejkabldbsionxbpjwipjpslnutde%20hmхnrhyrijuk-bcyoaaejwmtmee.pdf>
5. Мамашакиров С. Ваҳимами ёки ҳақиқат. Тошкент. - Иқтисод-молия, 2012. Б. 8.
6. Mirziyoyev Sh.M. Samarqanddagi "YEI-Markaziy Osiyo" sammitida nutqi. 3 aprel 2025 President. Uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi" to'g'risidagi 2025 yil 19 noyabrda Qarori
8. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 62 модда. <https://lex.uz/docs/6445145>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2018 йил 3 октябрдаги қарори. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.10.2018 й., 07/18/3956/1994-сон; 21.03.2019 й., 07/19/4247/2801-сон; 22.07.2020 й., 06/20/6031/1088-сон.

REZYUME:

Maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida yashil makonni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning dolzarb masallari va innovatsion mexanizmlari mohiyati tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: ekologiya, yashil makon, inson, yoshlar, ekologik ta'lim, strategiya, atrof muhit.

РЕЗЮМЕ:

В статье рассматриваются актуальные проблемы и инновационные механизмы совершенствования системы охраны зеленых насаждений в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Экология, зеленые насаждения, человек, молодежь, экологическое образование, стратегия, окружающая среда

RESUME:

This article examines current issues and innovative mechanisms for improving the green space protection system in the context of the new Uzbekistan.

Keywords: Ecology, green spaces, people, youth, environmental education, strategy, environment, transformation.